

## VIKTORIYA TOKAREVA NASRIY ASARLARI HAQIDA

**Berdiyev Sardorbek**

*Sharof Rashidov nomidagi SamDU 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada zamonaviy rus adabiyotining o'ziga xos ijodkorlardan biri Viktoriya Tokareva nasriy asarlarida yorqin ifodalangan turadigan mavzular ko'lamiga doir fikrlar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *qissa, hikoya, zamonaviy adabiyot, obrazlar, oila, muhabbat, o'lim, sotqinlik, ertangi kunga ishonch, mavzular ko'lami, psixologik xarakter.*

Viktoriya Tokareva biz yashayotgan zamonaviy real dunyoni o'z asarlarida ustalik bilan tasvirlaydi. U oila, muhabbat, o'lim, sotqinlik va ertangi kunga ishonch mavzularidagi qissalari va hikoyalarda bir-biriga o'xshash bo'lmagan qahramonlar hayoti haqida so'zlab beradi.

Yozuvchining asarlari keng qamrovga ega: u insonlarning haqiqatga va yolg'onga bo'lgan munosabati hamda burch tuyg'usi haqida yozadi. Bundan tashqari, uning asarlarida yosh va keksa avlodning o'zaro munosabati, hayot mazmuni kabi muammolar ko'tariladi.

Viktoriya Tokareva adabiy asarning qissa va hikoya shaklini shunchaki tanlamagan. Hikoya janri yordamida muallif syujet va mavzuni oson o'zgartirishi mumkin. Bunday asarlarni o'qish oson, ular ko'p vaqt talab qilmaydi, lekin o'quvchi ongida sezilarli iz qoldiradi.

Tokareva asarlari psixologik xarakterga ega. Hikoyalarda va novellalarda personajning xarakteri boshqa personaj bilan kundalik hayotda qilgan muloqoti, qilgan harakatlaridagi mayda detallar va boshqalar orqali ko'rsatib beriladi.

Shu bilan bir qatorda, muallif qahramonlarning ijtimoiy mavqei bilan emas, balki ularning xulq-atvori, psixologiyasi va inson tabiati bilan qiziqadi. Asardagi asosiy ziddiyat qahramonlarning axloqiy qarashlari va axloqiy tamoyillaridagi farq bilan belgilanadi. Tokarevaning nasriy asarlari gumanistik hissiyotlarga to'la. Uning qahramonlari kundalik muammolardan yiroqda emas, ularni faqirlik, hayot sinovlari qiynasa ham ertangi kunga bo'lgan ishonch hissi tark etmaydi. Odatda, asar syujetining markazida personajning axloqiy va hayotiy tamoyillarini ochib beradigan "tanlov" turadi. Muallif o'quvchiga o'z asarlarida "hayotiy tajriba"da ishtirok etish imkoniyatini beradi. Viktoriya Tokarevaning hikoyalari va novellalari mantig'i oddiy hayot mantig'iga amal qiladi, bu asarni haqiqatga yaqinlashtirishga va o'quvchiga tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Oddiy odamlar va oddiy hayotiy vaziyatlar kabi ko'rinadi. Ammo bu faqat boshlanishi. Tokareva asarlaridagi har bir iboradan keyin qahramon taqdirida burilishi kuzatiladi, bu esa u yengib o'tishi kerak bo'lgan sinovdir. Muallif insonning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining murakkab jarayonini, uyg'un, o'zini o'zi ta'minlaydigan, baxtli shaxsni shakllantirishni tasvirlashga

urg'u beradi. Bu jarayondaig sinovlar esa personaj uchun o'ziga hos test sifatida hizmat qiladi.

Viktoriya Tokarevaning har bir asari insonning ichki dunyosiga kichik sayohatdir. Mamlakat va davr, shaharlar, ko'chalar va uylar, shahar hayoti, qahramonlar – bularning barchasi asarning asosiy g'oyasiga bo'ysunadi. Bunday "sayohatlar" bizning ongimizda iz qoldiradi va ongimizdan ma'lum tasvirlarni yaratadi, chunki tasvirlangan voqealar va joylar yaqin o'tmish va hozirgi zamonda rus xalqining hayoti haqida to'g'ridan to'g'ri eslatib o'tadi.

Tokareva asarlarida tasvirlanayotgan jihatlar mayda detallargacha to'liq yozilmagan bo'lsa ham, o'quvchi asardagi mayda detallargacha tasavvurida voqea va hodisalarni jonlantiradi. Yozuvchi juda ixcham va ma'noli ifoda usulidan foydalanadi. Uning har bir satri o'ziga xos jozibaga ega: unda keraksiz va ma'nosiz iboralar yo'q – ularning har biri qimmatlidir va sizning tasavvuringizda yorqin hamda unutilmas tasvirlarni yaratadi.

Ko'pchilik kitobxonlar uchun tushunarli bo'lgan tilda o'z fikrlarini sodda va aniq yetkazadi, uning asarlarini o'qib bo'lgach, so'zlari va iboralarini kundalik hayotda qanday ishlatib qoyganingizni sezmay qolasiz. Tokarevaning bir qancha asarlaridagi iboralar allaqachon rus xalqi orasida kundalik hayotda ishlatiladigan iboralarga aylanib bo'lgan.

Muallifning ko'plab asarlarida falsafiy nasr elementlari mavjud. Tokareva hayotning o'tkinchiligi, oddiy odamning baxtga intilishi, sadoqat, erkak va ayolning sevgisi kabi falsafiy savollarga javob topishga harakat qiladi. Falsafiy hikoyaning elementlari "yaxshilik va yomonlik", "baxt fenomeni", "sevgi"ning doimiy muhokamasida ko'rinadi. Muallif o'quvchilarni o'ylashga, insonning hayoti qanchalik qiyin va mavhum ekanligini, hayot oddiy ko'rinsa-da, holatlar kutilmaganda qanchalik murakkabligini, hayot yo'lida oila, sevgi, baxt nomi bilan olib kelingan oddiy odamlarning "qurbonliklari" har kuni qanday ko'rinmasligini tushunishga majbur qiladi.

Viktoriya Tokarevaning asarlarida dolzarb bo'lgan keng muammolar mavjud: u odamlarning haqiqatga va yolg'onga munosabati, sevgi va burch hissi, oila va uy haqida yozadi. Shuningdek, oila va dunyo o'yin-kulgilari, hayotning ma'nosi, 90-yillarda Rossiyadagi dahshatli yashash sharoitlari va boshqa mamlakatga borishni istamaslik kabi muammolar ko'tarilgan.

Fransuz tili o'qituvchisi hayotidagi bir kun "День без вранья" ("Yolg'onlarsiz bir kun") hikoyasida tasvirlangan. Bu o'qituvchi bir kunini yolg'on va qo'rquvsiz o'tkazishga qaror qiladi. Uning samimiyligi avtobus nazoratchisini tang ahvolga soldi. Katta yoshli suhbatdoshlarning hech biri uni jiddiy qabul qilmadi. Faqat voyaga yetmagan o'quvchilar o'qituvchisini to'g'ri tushunishdi. Bu asar odamlarning yoshi ulg'aygan sari atrofdagi yolg'onlarga o'rganib qolishi va haqiqat bilan munosib uchrasha olmasligiga ishora qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Токарева В. Японский зонтик / В. Токарева // Банкетный зал: [рассказы и повести] / Виктория Токарева. – М.: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2008 – С. 134-141.

2 Булаховская Ю.Л. Афористичность писательского слова. – Выпуск 10 – К., 2009 – 480 с.

3 Токарева В. Зигзаг / В. Токарева // Террор любовью: [повесть и рассказы] / Виктория Токарева. – М.: АСТ МОСКВА: ХРАНИТЕЛЬ, 2008 – С. 281–289.

4 Токарева В. Этот лучший из миров / В. Токарева // Этот лучший из миров: [рассказы] / Виктория Токарева. – М.: АСТ: АСТ МОСКВА, 2010 – С. 5-11.